

Izoh:

1. Oliy ta'lim muassasasi ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.
2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari qo'shimcha fanlar blokining soatlari hisobiga, harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligini ta'minlash uchun Ilmiy kengashning qarori bilan foydalaniladi.
3. O'quv reja asosida oliy ta'lim muassasasi har yili Ishchi o'quv rejasini tuzadi. Bunda oliy ta'lim muassasasiga talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish hamda auditoriya yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda, ayrim semestrlarda haftalik yuklamalar hajmini erkin belgilash huquqi beriladi.
4. O'quv jarayoni davomida talabalar bilimini baholash, O'zR. SSVning 05.12.2018 yildagi "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida hamda TTA rektori tomonidan 12.12.2018 y.da tasdiqlangan "Toshkent tibbiyot akademiyasida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi. Bunda, to'liq tugatilgan fanlardan yakuniy nazorat (YaN), tugallanmagan fanlardan differensial sinov o'tkaziladi.
5. Talaba bilimini baholash zamonaviy, shaffof va adolatli usullardan foydalanilgan holda o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi.
6. Tibbiyotda xorijiy til fanining oxirgi 11-12 -semestrlarida bitiruvchi kurslar uchun qo'shimcha fanlar bloki va tanlov fanlari soatlari hisobidan har haftada 1 soatdan "Amaliy ingliz tili" fani o'qitiladi.
7. Tanlov (regional komponent**) soatlari tibbiyotda innovatsion davolash va diagnostika usullariga, shuningdek xududlardagi dolzarb tibbiyot muammolariga bag'ishlangan mavzularni o'rganish uchun ajratilishi tavsiya etiladi.
8. O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va klinik o'quv amaliyoti oliy ta'lim muassasasi hamda davolash profilaktika muassasalarida o'tkaziladi.
9. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari davolash profilaktika muassasalarida o'tkaziladi.
10. Mazkur ishchi o'quv reja O'zR OO'MTV bilan kelishilgan va Sog'liqni saqlash vazirining 564-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja asosida ishlab chiqilgan hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashi yig'ilishining 26.06.23 yildagi 12-sonli bayoni bilan tasdiqlangan bo'lib, 2023/2024 o'quv yilida 2018 o'quv reja asosida 5-6 kurs talabalarini o'qitish uchun mo'ljallangan.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Hafta	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	214	1-12	1. Tibbiyotda xorijiy til
Malakaviy amaliyot	19	2-10	2. Ta'lim yo'nalish fanlaridan integratsiyalangan davlat attestatsiyasi
Attestatsiyalar	29	1-12	
Ta'til	46	1-12	
JAMI	308		

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i

F.X.Azizova